

О‘ЗBEK TILIDA MAISHIY TURMUSHGA OID DIALEKTAL BIRLIKLARNING AREAL XUSUSIYATLARI

*(Obodon, Jaloyir, Shalldiroq,
Hurlik va Oynako‘l shevalari misolida)*

Termiz davlat universiteti
Kompyuter lingvistikasi magistranti

Pirnazarova Sabohat

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilining Obodon, Jaloyir, Shalldiroq, Hurlik va Oynako‘l hududiy shevalarida uchraydigan maishiy turmush, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari hamda oziq-ovqat nomlariga oid dialektal birliklar areal lingvistika nuqtayi nazaridan batafsil tahlil qilinadi. Dialektal birliklarning hududiy tarqalishi jadval asosida yoritilib, ularning fonetik, leksik va qisman semantik xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *areal lingvistika, dialekt, sheva, hududiy leksika, o‘zbek tili.*

АРЕАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДИАЛЕКТНЫХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С БЫТОВОЙ ЖИЗНЬЮ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

(на примере говоров Ободон, Жалойир,

Шалдирок, Хурлик и Ойнакуль)

Пирназарова Сабохат

магистрант направления «Компьютерная
лингвистика»

Термезского государственного университета

Аннотация: В данной статье с точки зрения ареальной лингвистики проводится детальный анализ диалектных единиц, связанных с бытом, одеждой,

предметами домашнего обихода и наименованиями продуктов питания, встречающихся в территориальных говорах узбекского языка Ободон, Жалойир, Шалдирик, Хурлик и Ойнакуль.

Территориальное распространение диалектных единиц представлено в виде таблиц, раскрываются их фонетические, лексические и частично семантические особенности.

Ключевые слова: ареальная лингвистика, диалект, говор, территориальная лексика, узбекский язык.

AREAL CHARACTERISTICS OF DIALECTAL UNITS RELATED TO EVERYDAY LIFE IN THE UZBEK LANGUAGE

(Based on the Dialects of Obodon, Jaloyir, Shalldiroq, Hurlik, and Oynako'l)

Pirnazarova

Sabohat

Master's student in Computer Linguistics
Termez State University

Abstract: This article provides a detailed analysis of dialectal units related to everyday life, clothing, household items, and food names found in the regional dialects of the Uzbek language spoken in Obodon, Jaloyir, Shalldiroq, Hurlik, and Oynako'l, from the perspective of areal linguistics.

The territorial distribution of these dialectal units is presented in tabular form, and their phonetic, lexical, and partially semantic features are examined.

Keywords: areal linguistics, dialect, vernacular, regional vocabulary, Uzbek language.

Areal lingvistika tilshunoslikning til hodisalarining geografik tarqalishini, ularning ma'lum hudud doirasida shakllanishi va rivojlanishini o'rganuvchi

yo‘nalishidir. Ushbu soha til birliklarining hududiy xususiyatlarini aniqlash, sheva va dialektlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

Areal lingvistika terminining shakllanishi XX asr boshlariga to‘g‘ri kelib, u dastlab Yevropa tilshunosligida til hodisalarining xarita asosida tahlil qilinishi bilan bog‘liq holda rivojlandi.

Areal lingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti — **izoglossalar**, ya‘ni muayyan til hodisasining tarqalish chegaralaridir. Izoglossalar yordamida biror fonetik, leksik yoki grammatik birlikning qaysi hududda faol, qaysi hududda esa kam qo‘llanishi aniqlanadi. Bu metod ayniqsa dialektologik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Areal lingvistika nafaqat til birliklarining geografik tarqalishini, balki ularning **tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar** bilan bog‘liqligini ham o‘rganadi. Masalan, ayrim hududlarda izoglossalar va shevaga oid so‘zlarning saqlanib qolishi tarixiy aloqalar va ijtimoiy muhit bilan izohlanadi. Bu holat Obodon va Jaloyir shevalarida uchraydigan ayrim o‘zlashma leksemalarda ham kuzatiladi, shuning uchun ham areal lingvistika adabiy til va shevalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida aniqlangan dialektal birliklar adabiy til bilan qiyoslanib, ularning qaysi biri adabiy tilga yaqinlashgan, qaysi biri esa faqat muayyan hudud doirasida saqlanib qolganligi belgilandi. Bu esa o‘zbek tilining ichki rivojlanish jarayonlarini tushunishga imkon beradi.

Areal lingvistika metodlari asosida olib borilgan ushbu tadqiqot o‘zbek shevalaridagi maishiy turmush leksikasining hududiy xususiyatlarini aniqlashga, ularning o‘zaro aloqalari va farqlarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘zbek dialektologiyasini rivojlantirish va shevalarni tizimli o‘rganishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Areal lingvistika til birliklarining ma‘lum geografik hududlarda tarqalishi, o‘zaro ta‘siri va chegaralanishini o‘rganadi. Bu yo‘nalish shevashunoslik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tilning tarixiy taraqqiyoti, xalqning turmush tarzi va madaniy aloqalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilida ayniqsa maishiy turmushga oid leksik qatlam hududiy xususiyatlarni eng aniq aks ettiruvchi soha hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda Obodon, Jaloyir, Shaldiroq, Hurlik va Oynako'l hududlariga xos dialektal birliklar tahlil qilinib, ularning areal xususiyatlari aniqlanadi.

1. Maishiy turmush bilan bog'liq leksemalarning areal xususiyatlari

Maishiy turmush buyumlari nomlari shevalarda juda faol qo'llaniladi va hududiy farqlarni ochib berishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda ayrim maishiy leksemalarning adabiy til va hududiy shevalardagi variantlari keltirilgan.

1-jadval

Maishiy turmushga oid dialektal birliklarning hududiy tarqalishi

Adabi y til	Obodo n	Jaloyir	Shaldi roq	Hurli k	Oyna ko'l
xaskas h	grabil	grabil	haskas h	haskas h	grabil
obdast a	ottava	ottava	ottava	ottaba	ottaba
belanc hak	balginc hak	balginc hak	balginc hak	balinc hak	balinc hak
chelak	satil	satil	satil	satil	satil
qop	kallak	kallak	kallak	kallak	kallak
sochiq l	qo'rmo l	qo'rim ol	sochiq	sochiq	sochiq

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim leksemalar hududlar bo'yicha keskin farqlanadi. Masalan, **xaskash** so'zining **grabil** shaklida qo'llanilishi rus tilidan kirib kelgan o'zlashmalarning Obodon va Jaloyir hududlarida mustahkam o'rinishganini ko'rsatadi. Ayni paytda Shaldiroq va Hurlik hududlarida ushbu leksemaning adabiy tilga yaqin shakli saqlanib qolgan.

Obdasta – **ottava/ottaba** variantlari esa fonetik moslashuv jarayonining natijasidir. Bu holat shevalarda undosh tovushlarning almashuvi va talaffuzdagi soddalashuv bilan izohlanadi. **Belanchak** soʻzining turli shakllari (balginchak, balinchak) esa fonetik differensiyaning hududiy xususiyatga ega ekanini koʻrsatadi

2. Kiyim-kechak bilan bogʻliq leksemalarning areal tahlili

Kiyim-kechak nomlari shevalarda nisbatan barqaror boʻlsa-da, ayrim fonetik va leksik farqlar mavjud. Quyidagi jadvalda bu holat aks ettirilgan.

2-jadval

Kiyim-kechak nomlarining hududiy variantlari

Adab iy til	Obod on	Jaloyi r	Shaldir oq	Hurli k	Oynak oʻl
nimch a	gupich a	gupic ha	gupicha	gupic ha	gupicha
mahsi	massi	massi	massi	massi	massi
yakta k	jelak	jelak	jelak	jelak	jelak
paypo q	poypo	poypo	poypoq	poypo	poypoq
zirak	sirgʻa	sirgʻa	sirgʻa	sirgʻa	sirgʻa

Mazkur jadvaldan koʻrinadiki, **nimcha** – **gupicha** juftligi barcha hududlarda bir xil shaklda qoʻllanilib, uning areal jihatdan keng tarqalganini koʻrsatadi. Bu esa mazkur leksemaning hududiy umumxalq xususiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Mahsi – **massi**, **paypoq** – **poypoq** kabi birliklarda unli tovushlarning almashuvi kuzatiladi. Bu holat shevalarning fonetik tizimiga xos boʻlib, talaffuzdagi qulaylik va tezkorlik bilan bogʻliq.

3. Uy-roʻzgʻor buyumlari va oziq-ovqat nomlarining areal xususiyatlari

Uy-ro'zg'or buyumlari hamda oziq-ovqat nomlari dialektal jihatdan eng faol va boy qatlamlardan biridir. Quyidagi jadval ushbu birliklarning hududiy tarqalishini ko'rsatadi.

3-jadval

Uy-ro'zg'or buyumlari va oziq-ovqat nomlarining hududiy variantlari

Adabiy	Obodon	Jaloyir	Shaldir	Hurlik	Oynako
yostiq	dostiq	dostiq	bolish	bolish	bolish
to'nog'	iynaqad	iynaqad	iynaqad	iynaqad	iynaqad
agich	agich	agich	agich	agich	agich
shovla	jalama	jalama	jalama	jalama	jalama
besbbar	ko'loplit	ko'loplit	ko'loplit	kulopito	kulopito
moq	bo'lpa	bo'lpa	bo'lpa	bo'lpa	bo'lpa
ayron	chalop	chalop	chalop	chalop	chalop

Jadvaldan ko'rinadiki, **yostiq** so'zining **dostiq** va **bolish** variantlari hududiy leksik differensiyani aniq ko'rsatadi. Bu holat ayrim hududlarda qadimgi turkiy birliklarning saqlanib qolganini anglatadi.

Oziq-ovqat nomlarida esa **shovla** – **jalama**, **ayron** – **chalop** kabi birliklar barcha hududlarda bir xil shaklda uchrab, ularning areal jihatdan barqaror ekanini ko'rsatadi. **Beshbarmoq** taomining variantlari esa fonetik o'zgarishlar asosida yuzaga kelgan bo'lib, hududiy talaffuz farqlarini aks ettiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Obodon, Jaloyir, Shaldir, Hurlik va Oynako'1 shevalarida maishiy turmushga oid leksik birliklar areal jihatdan o'zaro yaqin bo'lsa-da, fonetik va leksik farqlar bilan ajralib turadi.

Jadval asosida olib borilgan tahlil hududiy shevalarning tarqalish chegaralarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot o'zbek tilining shevalar tizimi boy va rang-barang ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. *O'zbek tilining dialektologiyasi*. — Toshkent: Fan, 1972.
2. Reshetov V. V. *Arealnaya lingvistika i dialektologiya*. — Moskva: Nauka, 1988.
3. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o'zbek tili leksikologiyasi*. — Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Mirzayev I. *O'zbek shevalari va ularning hududiy xususiyatlari*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. Qodirov A. *O'zbek tilshunosligida areal tadqiqotlar masalalari*. — Toshkent: Universitet, 2015.
6. Yo'ldosheva N, Kurbanazarova N. "Areal lingvistika" — Termiz 2023